

SHARQ OLIMLARI RISOLALARIDA MUSIQANING TUTGAN O‘RNI

Mamatqulov Oybek

Guliston davlat universiteti “San’atshunoslik” fakulteti

“An’anaviy xonandalik va cholg‘u ijrochiligi” kafedresi

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada sharq olimlari risolalarida musiqaning tutgan o‘rni va ularning negizi ko‘rsatilgan. Ushbu masalalarni hal qilishda olib borilgan tadqiqotlarga va olingan tajribalar natijalariga binoan, uchraydigan muammolarni echimi taklifi berilgan.*

***Kalit so‘zlar:** evritmiya, risola, mimesis, mutafakkir, san’at, musiqa, kanon.*

Buyuk Turon zaminida musiqa madaniyati va ijrochilik san’atining rivojlanishi qadim zamonlarga bog‘lanib ketadi. Buyuk sharq allomalari Muhammad Al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Ahmad al-Farg‘oniy, Abu Ali ibn Sino, Pahlavon Mahmud, Umar Hayyom, Mirzo Ulug‘bek, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Pahlavon Muhammad, Najmiddin Kavkabiy, Darvish Ali CHangiy va boshqa ulug‘ bobokalonlarimiz o‘zlarining risolalarida ijrochilik san’ati, musiqa ilmi va tarixi, cholg‘u sozlarining tuzilishi, ijroviy uslublari, san’atkorlik qonun - qoidalariga oid qimmatli ma’lumotlarni bayon etib ketganlar. Mashhur didaktik asar «Qobusnoma»da ham hofizlik va san’atkorlikning qoidalariga bag‘ishlangan alohida bob o‘rin olgan. Qadimiy qo‘lyozmalarda X-XII asrlarda ijod qilgan Abubakr Rubobiy, Bunasr, Buamir va changchi Lukoriy va boshqa sozanda va hofizlarning nomlari eslab o‘tiladi.

IX-X asrda yashagan buyuk shoir Abu Abdullo Rudakiy o‘z zamonasining chang sozlarini chalishda mohir bo‘lganligi, ayniqsa «Bo‘yi juyi muliyon» she‘rini ushshoq kuyida aytilgani qadimgi qo‘lyozmalarda ko‘rsatilgan. Adabiyotshunos olim N.Mallaev qadimiy ko‘lyozmalar asosida X-XII asrlarda tanbur, rubob, kus nog‘ora,

qo‘biz, tabl, tanburok, zir, nay, chag‘ona, shaypur, surnay, karnay, arg‘unan, qonun kabi torli, zarbli va puflab chaladigan cholg‘u asboblari o‘lkamizda keng tarqalganini va o‘n ikki maqom taraqqiy topib takomillashganini ko‘rsatib o‘tgan. Tarixiy manbalarga suyanib A.Semenov yozishicha X-XII asrlarda Buxoro Samarqand Balx kabi shahar sozandalarining orasida shahar arkalarida va maydonlarida kechayukunduz to‘xtamay 12 maqomni ijro etuvchilar bo‘lgan ekan. Har bir maqom navbati oldidan ular o‘z kiyimlarini o‘zgartirib turishgan ekan.

SHarq olimlarining nazariy qarashlari mavjud ijrochilik san‘ati tajribasi asosida shakllangan bo‘lib, ular o‘z risolalarida musiqaning jamiyatda tutgan o‘rni va ahamiyati haqida atroflicha ma‘lumot berganlar. Forobiyning (873 -950) “Katta musiqa kitobi” (“ Kitob al-musiqa al-kabir”), Ibn Sinoning (980-1037) “Davolash kitobi” (“Kitob ush-shifo”) qomusidagi “Musiqa xaqida risola”, Al-Xorazmiyning (X asr) “Bilimlar kaliti”, Safiuddin Urmaviyning (1216 -1294) “Olijanoblik xaqida kitob” yoki “SHarafiya kitobi”, Jomiyning (1414-1492) “Musiqa xaqida risola” kitoblarida musiqa ijrochiligi va xalq cholg‘ulari haqida muhim ma‘lumotlar bayon etilgan.

O‘rta asrlardayoq SHarqning buyuk mutaffakkirlari musiqiy psixologiya, musiqaning qalbgaga, kayfiyatga va inson organizmiga ta’siri masalalarini o‘rganishgan: Forobiyning «Musiqa haqida katta kitob»i va boshqa asarlari, Ibn Sinoning «Kitob ash-shifo», «Kitob an-najot», «Donishnoma» kabi asarlarining musiqa haqidagi bo‘limlari, Abdurahmon Jomiyning «Risolai musiqa» kitobi shular qatorida turadi.

Musiqa psixologiyasi haqidagi yanada qadimiyroq ta’limotlar Qadimgi Misr, Hindiston, Xitoy olimlari, zardushtiyarning muqaddas kitobi «Avesto»da bayon etilgan. Pifagorning evritmiya, Arastuning mimesis ta’limotlari shular jumlasidan. Ular musiqaning inson ongi, shaxsiga, umuman, jamiyat rivojiga ulkan ta’sirini ta’kidlab o‘tishgan. Masalan, Aflotun «davlatning qudrati unda qanday musiqa, qaysi lad va qay ritmda yangrayotganligigiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq», – degan.

Safiuddin Urmaviy iste'dodli ud cholg'uchisi, xonanda, mashhur sozanda sifatida tanilgan. U Ozarbayjonning Urmiya shahrida tug'ilgan. Safiuddinining eng katta yutug'i lad ("modus")larning mukammal sistemasini ishlab chiqqanligidadir. Ibn Zaylining (1044 yilda vafot etgan) "Musika haqida to'liq kitob"i ("Kitob ul-kabi fil-musiqiy") uning musika ilmidagi yagona va bebaho kitobidir. U yangi usulni - musiqada lادلarni harflar bilan ifodalash usulini ishlab chiqdi. Abdulqodir Marog'iy (XV asr), Abdulqodir ibn-G'oyibiy (Marog'iy), Ozarbayjonning Marog' shahrida tug'ilgan bo'lsada, hayotining ikkinchi yarmi Temur saroyida Samarqandda o'tgan va Hirotda vafot etgan. "Musika ilmida ohanglar to'plami" ("Jami al-alxan fi-ilm al-musiqiy") risolasida musika xaqidagi ta'limotni - kamoncha etti torli g'ijjak kabi bir turdagi musika cholg'ulari borligi haqidagi ma'lumotlar bilan boyitdi. Al-Husaynning (XV asr) Musiqiy Kanonlarida asosan O'rta Osiyo xalqlari orasida keng tarqalgan ikki torli musika cholg'usi - dutor haqida ma'lumot berilgan. Qutbiddin ash-SHeroziy (1236-1310) eronlik musika nazariyotchisi sifatida tanilgan bo'lib, o'z risolasida kamonchali tanbur haqida ibratli mulohazalar bildirgan, hamda inson ovozi musika asboblari ichida eng yoqimli deb hisoblagan. XVII asrda yashagan buxorolik musiqashunos Darvish Ali o'z risolasidagi tanbur, chang, qonun, barbot, chag'ona, ud, rud, rubob, qobuz, g'ijjak, shemane, ruxavza, kungura kabi musika cholg'ulari haqida batafsil ma'lumot bergan.

Buyuk SHarq mutafakkirlarining merosi xalq cholg'ularini o'rganish sohasida ham tarixiy qimmatga ega. Abu Nasr Muhammad Forobiyning mashhur asari "Musika xaqida katta kitob" ("Kitob al-musika al-kabir") ulkan ahamiyatga ega. O'rta asr olimi bu kitobida ikki xil musika ijrochiligi: ohangni inson ovozi (qo'shiq san'ati) va cholg'ular vositalarida qayta tiklashga ajratadi. Forobiy mohir ijrochi sifatida musika cholg'ularining jamiyat hayotidagi rolini o'rganishga ahamiyat beradi va u: "... Jangu-jadallarda, raqslarda, to'y-tomoshalarda, ko'ngil ochar bazmlarda hamda ishq-muhabbat qo'shiqlarini kuylashda chalinadigan o'ziga xos cholg'ular bor" deb yozgan edi.

O‘rta Osiyoda musiqiy-nazariy ilm rivojiga to‘xtab o‘tish alohida ahamiyatga ega. Ayni IX-XI asrlarda musiqa faniga asos solinib, O‘rta Osiyoning o‘rta asrda yashagan olimlarining deyarli barchasi bu masala bilan shug‘ullanar edilar. IX asrdayoq musiqa haqida risolalar paydo bo‘lib, ularda musiqaning nazariy asoslari tadqiq etiladi, musiqa asboblari ilmiy tasvirlanadi, taniqli ijrochilar nomi, ularning repertuari keng tarqalgan musiqa janrlarining nomlari keltiriladi.

Abu Ali ibn Sino. (Avitsenna). Yana bir ulug‘ alloma Abu-Ali Ibn Sino (980-1037) ham musiqa nazariyasi bilan shug‘ullangan bo‘lib, 1931 yilda Maxmud al Xavfning Berlinda nashr etilgan Ibn Sinoning musiqa ijodiga bag‘ishlangan kitobida Abu-Ali Ibn Sinoni katta musiqa nazariyachisi va uning musiqa asboblari ham kashf etgani to‘g‘risida ma’lumot beradi. Yana shu kitobda ulug‘ olimning musiqa haqidagi «Kitob un najot» asarining arabchadan nemischaga tarjimasini berilgan. Abu Ali Inb Sino meditsina, falsafa, musiqa sohasida «Alqonun fit-tib» («Tib qonun»), «Kitob ul shifo» («Shifo kitobi»), «Donishnoma», «Risola fial musiqiy sayr mo fi al shifo» («Musiqaga to‘g‘risida» «Shifo»da berilgandan boshqa risola») kabi qator asarlarni yozdi. Ibn Sinoning musiqaga doir mulohazalari «Kitob ush shifo» asariga alohida bir qism qilib kiritilgan. Yuqoridagi asarlarda Ibn Sino musiqaning estetik ahamiyati va ta’sir kuchiga e’tibor berib, ayrim jismoniy va ruhiy kasalliklarni musiqa vositasi bilan shifolash usullarini o‘z amaliyotida joriy qiladi. Bu yana o‘sha davrda musiqa san’atining yuksaklikka erishganini ham ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sh. Mirziyoev. “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar” to‘g‘risidagi qaror. 2 fevral, 2022 yil.
2. Sh. Ayxodjaeva . “O‘zbek musiqasi tarixi”. Toshkent 2021yil
3. A. Odilov “ O‘zbek xalq cholg‘ularida ijrochilik tarixi” O‘qituvchi, 1995 yil
4. Sh. Umarov “Musiqaga cholg‘ularini o‘rganish” Toshkent, 2018 yil
5. Sh. Rasulov “Oliy ta’limni rivojlantirishda elektron ta’limning roli” metodik qo‘llanma Toshkent 2023 yil.